

IJTIMOIIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI DAROMADLARINI KO'PAYTIRISH

Ulug'bek Erkinovich Qurbanov

Yoshlar ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari

Iqtisodiyot fakulteti O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent shahar Olmazor tumani universitet ko'chasi

E-mail: kurbanovulug5@gmail.com

Toshturdiyev Umid Vahob o'g'li

Iqtisodiyot yo'nalishi

1-bosqich talabasi Iqtisodiyot fakulteti

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent shahar Olmazor tumani universitet ko'chasi

Email: toshturdiyevumid98@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda aholi daromadlarini ko'paytirishdagi roli ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy maqsadi faqat foyda olish emas, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish, ishsizlikni kamaytirish, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va ularning daromad manbalarini kengaytirishdan iboratdir. Maqolada ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali hududlarda bandlikni oshirish, uy xo'jaliklari daromadini ko'paytirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash masalalari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida tahliliy yondashuv, taqqoslash va mantiqiy xulosa chiqarish metodlaridan foydalaniladi. Natijada ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, raqamli platformalar orqali savdo imkoniyatlarini oshirish kabi takliflar ishlab chiqiladi. Yakunda

ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholining real daromadlarini ko'paytirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, daromad, bandlik, kambag'allikni qisqartirish, kichik biznes, subsidiya, grant, soliq imtiyozlari, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy xizmatlar.

Аннотация

В данной статье научно и практически анализируется понятие социального предпринимательства, его значение в жизни общества и роль в повышении доходов населения. Основной целью социального предпринимательства является не только получение прибыли, но и решение социальных проблем, сокращение безработицы, поддержка малообеспеченных слоев населения и расширение их источников дохода. В статье освещены вопросы повышения занятости в регионах, увеличения доходов домохозяйств, эффективного использования местных ресурсов и улучшения качества социальных услуг через развитие социального предпринимательства. В процессе исследования использовались методы аналитического подхода, сравнения и логического вывода. В результате были разработаны предложения по усилению механизмов финансирования, расширению налоговых льгот, поддержке молодежного и женского предпринимательства, а также расширению возможностей торговли через цифровые платформы. В заключении обосновано, что развитие социального предпринимательства является важным фактором повышения реальных доходов населения и сокращения бедности.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, доход, занятость, сокращение бедности, малый бизнес, субсидия, грант, налоговые льготы, инновации, цифровая экономика, социальные услуги.

Abstract

This article provides a scientific and practical analysis of the concept of social entrepreneurship, its significance in social life, and its role in increasing public income. The primary goal of social entrepreneurship is not merely profit generation, but solving

social issues, reducing unemployment, supporting vulnerable populations, and expanding their income sources. The paper highlights issues such as increasing regional employment, boosting household incomes, effective utilization of local resources, and improving the quality of social services through the development of social entrepreneurship. The research employs methods of analytical approach, comparison, and logical inference. Consequently, proposals were developed to strengthen financing mechanisms, expand tax incentives, support youth and women's entrepreneurship, and enhance trade opportunities via digital platforms. In conclusion, it is substantiated that the development of social entrepreneurship is a crucial factor in increasing real public income and poverty reduction. **Keywords:** social entrepreneurship, income, employment, poverty reduction, small business, subsidy, grant, tax incentives, innovation, digital economy, social services.

Kirish

Bugungi kunda aholining turmush darajasini oshirish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari har bir davlat uchun eng muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aholi daromadi oshishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, iste'mol bozorini kengaytiradi hamda iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bunday islohotlar jarayonida ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik oddiy biznesdan farqli ravishda faqat foyda olishni emas, balki jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash, ayollar va yoshlarning bandligini oshirish, ekologik muammolarni kamaytirish, arzon va sifatli ta'lim yoki tibbiy xizmat ko'rsatish kabi masalalar ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy yo'nalishlariga kiradi.

O'zbekistonda aholining bir qismi hali ham barqaror daromad manbaiga ega emasligi, ayniqsa qishloq hududlarida ish o'rinlari yetishmasligi va migratsiya jarayonining

kuchayishi ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Chunki ijtimoiy tadbirkorlik hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining o‘zini o‘zi band qilishini rag‘batlantirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali daromadlarni oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — ijtimoiy tadbirkorlikning aholi daromadlarini ko‘paytirishdagi o‘rni va ahamiyatini yoritish, shuningdek, uni rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlanadi. Umumiy yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy tadbirkorlik bu — iqtisodiy faoliyat orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan tadbirkorlik shaklidir. Jahon amaliyotida ijtimoiy tadbirkorlik XX asr oxiri va XXI asr boshlarida faol rivojlana boshlagan bo‘lib, u jamiyatdagi kambag‘allik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik, ta’lim va tibbiyot xizmatlari yetishmasligi kabi muammolarga amaliy yechim sifatida qaraladi.

Mashhur olim Muhammad Yunus ijtimoiy tadbirkorlikni jamiyatdagi kambag‘allikka qarshi kurashning eng samarali vositasi sifatida baholagan. Uning fikricha, ijtimoiy biznes oddiy biznes kabi daromad keltiradi, ammo olingan foyda aksariyat hollarda qayta jamiyat ehtiyojlariga yo‘naltiriladi. Shuningdek, Dees (2001) ijtimoiy tadbirkorlarni jamiyatdagi muammolarni ko‘rib, uni innovatsion usulda yechishga harakat qiladigan shaxslar sifatida ta’riflaydi.

Yevropa davlatlarida ijtimoiy tadbirkorlik ko‘proq ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida rivojlangan. Masalan, Germaniya va Fransiya da nogironlar uchun maxsus ish o‘rinlari yaratadigan korxonalar, rehabilitatsiya markazlari va ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar keng tarqalgan. Buyuk Britaniya da esa ijtimoiy korxonalar davlat buyurtmalarini bajarish orqali barqaror daromad topadi.

AQSh tajribasida ijtimoiy tadbirkorlik ko‘pincha startaplar va innovatsion loyihalar orqali rivojlanadi. U yerda raqamli texnologiyalar asosida ta’lim platformalari, ekologik loyihalar va sog‘liqni saqlashga oid xizmatlar keng qo‘llaniladi.

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlik endigina rivojlanayotgan yo‘nalish hisoblanadi. Biroq yoshlar tadbirkorligi, ayollar bandligi, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi orqali ijtimoiy tadbirkorlikning muhim elementlari shakllanmoqda. O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni kengaytirish aholining daromadini oshirish va hududiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlikning aholi daromadlariga ta’sirini o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tahlil va sintez metodi — ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatini chuqur tahlil qilish;
2. Taqqoslash metodi — jahon tajribasi va O‘zbekiston sharoitidagi imkoniyatlarni solishtirish;
3. Statistik tahlil yondashuvi — aholi bandligi va daromadlar o‘rishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish;
4. Mantiqiy xulosa chiqarish metodi — tadqiqot natijalariga asoslangan holda amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari, ularning faoliyati hamda ular orqali aholi daromadining oshish jarayoni olindi. Tadqiqot predmeti esa ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Ijtimoiy tadbirkorlikning aholi daromadlarini oshirishdagi roli juda katta bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida bandlikni ta’minlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va iqtisodiy faollikni

o'shish kabi bir necha yo'nalishda natija beradi. Ushbu bo'limda ijtimoiy tadbirkorlikning daromad o'shishga ta'siri, uning asosiy yo'nalishlari hamda O'zbekiston sharoitidagi imkoniyatlari keng yoritiladi.

Birinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik ishsizlik muammosini kamaytiradi. Ishsizlik aholining daromad manbalarini qisqartiradi, kambag'allik darajasini oshiradi va migratsiyani kuchaytiradi. Ijtimoiy tadbirkorlik esa yangi korxonalar tashkil qilish orqali ish o'rinlarini yaratadi. Masalan, qishloq joylarda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, tikuvchilik sexlari, hunarmandchilik markazlari tashkil qilinsa, ko'plab yoshlar va ayollar ish bilan ta'minlanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik kam ta'minlangan qatlamlarning iqtisodiy faolligini oshiradi. Ko'pincha kam ta'minlangan oilalar barqaror ishga ega emas bo'lgani uchun daromadi past bo'ladi. Ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari ular uchun maxsus ish o'rinlari yaratishi yoki kasb-hunar o'rgatish orqali o'zini o'zi band qilish imkoniyatini ta'minlashi mumkin. Bu esa uy xo'jaliklarining umumiy daromadini oshirishga olib keladi.

Uchinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik hududiy rivojlanishni tezlashtiradi. Hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish rivojlansa, mahalliy aholi daromadi oshadi, soliq tushumlari ko'payadi va infratuzilma yaxshilanadi. Natijada iqtisodiy o'sish barqarorlashadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik ta'lim va kasb-hunar yo'nalishida ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda yoshlar orasida malaka yetishmasligi sababli ish topish qiyinlashmoqda. Agar ijtimoiy tadbirkorlik asosida kasb-hunar o'rgatuvchi markazlar ochilsa, yoshlar yangi kasb egallaydi va o'z daromadiga ega bo'ladi.

Beshinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik ekologik va sog'liqni saqlash sohalarida ham aholi farovonligiga ta'sir qiladi. Masalan, chiqindini qayta ishlash, organik mahsulotlar yetishtirish, ekologik toza ishlab chiqarish tashkil etish orqali nafaqat daromad olinadi, balki atrof-muhit muhofazasi ham ta'minlanadi.

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarli. Chunki mamlakatda yoshlar ulushi katta, mehnat resurslari ko'p va hududlarda foydalanilmayotgan resurslar mavjud. Masalan, qishloq joylarda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish mumkin. Shuningdek, turizm va hunarmandchilik sohasida ham ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish katta natija beradi.

Ammo ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muammolar ham mavjud. Jumladan, moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi, biznes reja tuzish bo'yicha bilim va tajriba kamligi, marketing va savdo tizimining sustligi kabi muammolar mavjud. Shu sababli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda grantlar va subsidiyalar katta rol o'ynaydi. Agar davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan ijtimoiy loyihalar uchun grant ajratilsa, tadbirkorlar o'z faoliyatini boshlashi osonlashadi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari berilishi ham tadbirkorlikni rag'batlantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar ijtimoiy tadbirkorlik uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Bugungi kunda internet orqali mahsulot sotish, reklama qilish, xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengaygan. Agar ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari elektron savdo platformalaridan foydalansa, ular o'z mahsulotini nafaqat mahalliy bozorda, balki xalqaro bozorda ham sotish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa daromadni sezilarli oshiradi.

Demak, ijtimoiy tadbirkorlik aholining daromadini oshirishda kompleks ta'sir ko'rsatadigan yo'nalish bo'lib, uni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o'sishini tezlashtiradi hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Jadval 1: Ijtimoiy tadbirkorlikning aholi daromadiga ta'sir mexanizmlari

Yo'nalish	Ta'sir mexanizmi	Natija
Ish o'rinlari yaratish	Korxona va xizmatlar soni ortadi	Bandlik oshadi

Hunarmandchilik	Uy sharoitida ishlab chiqarish	Oilaviy daromad ko‘payadi
Qayta ishlash korxonalari	Qo‘shimcha qiymat yaratiladi	Hududiy daromad oshadi
Ta’lim kurslari	Kasb o‘rgatish orqali malaka oshadi	Yoshlar ish topadi
Ijtimoiy xizmatlar	Muhtoj qatlamga xizmat ko‘rsatiladi	Jamiyat farovonlashadi

Jadval 2: O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari

Sohalar	Imkoniyatlar	Kutilayotgan natija
Qishloq xo‘jaligi	Mahsulotlarni qayta ishlash va kooperatsiya	Daromad va eksport oshadi
Tikuvchilik	Uy sharoitida ish o‘rinlari yaratish	Ayollar bandligi oshadi
Hunarmandchilik	Milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish	Turizm rivojlanadi
IT xizmatlar	Onlayn xizmatlar va platformalar	Yoshlar daromadi oshadi
Ekologiya	Chiqindini qayta ishlash loyihalari	Atrof-muhit yaxshilanadi

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tadbirkorlik aholi daromadlarini ko'paytirishda eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Chunki u nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni kamaytiradi, bandlikni oshiradi va kambag'allikni qisqartiradi. Ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida aholining real daromadi oshadi, iste'mol bozorida talab kuchayadi va iqtisodiy o'sish barqarorlashadi.

Maqola natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash.
2. Yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida grant va subsidiyalar ajratish hajmini oshirish.
3. Qishloq joylarda kooperatsiya asosida ijtimoiy korxonalar tashkil etish va mahsulotlarni qayta ishlashni kengaytirish.
4. Tadbirkorlar uchun biznes reja tuzish, marketing va raqamli savdo bo'yicha bepul o'quv kurslarini yo'lga qo'yish.
5. Ijtimoiy tadbirkorlik mahsulotlarini sotish uchun elektron savdo platformalarini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.
6. Ijtimoiy tadbirkorlik loyihalariga investitsiya jalb qilish uchun bank kreditlarini soddalashtirish va foiz stavkalarini kamaytirish.

Agar ushbu takliflar amaliyotga joriy etilsa, ijtimoiy tadbirkorlik orqali aholi daromadlari oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va mamlakatda kambag'allik darajasi sezilarli darajada qisqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Muhammad Yunus. Social Business and the Future of Capitalism. PublicAffairs, 2010.
2. Dees J.G. The Meaning of Social Entrepreneurship. Stanford University, 2001.
3. OECD. Social Entrepreneurship and Social Innovation. OECD Report, 2019.

4. Porter M., Kramer M. Creating Shared Value. Harvard Business Review, 2011.
5. World Bank. Employment and Poverty Reduction Strategies. 2020.
6. UNDP. Inclusive Business Models and Social Entrepreneurship. 2021.
7. Ashoka Foundation. Global Social Entrepreneurship Report. 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy ma’lumotlari.
9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni oshirishga oid qaror va farmonlari.
11. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha normativ hujjatlar.
12. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) hisobotlari, 2021-2023.
13. Raqamli iqtisodiyot va elektron savdo bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami, 2022.
14. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlari.
15. Social Enterprise UK. Annual Report. 2022.